



ISSN 2181-1709 (P)
ISSN 2181-1717 (E)

2025/№ 1

**TA'LIM VA
INNOVATSION
TADQIQOTLAR**

**ОБРАЗОВАНИЕ И
ИННОВАЦИОННЫЕ
ИССЛЕДОВАНИЯ**

**EDUCATION AND
INNOVATIVE
RESEARCH**

TA'LIM VA INNOVATSION TADQIQOTLAR

ОБРАЗОВАНИЕ И ИННОВАЦИОННЫЕ ИССЛЕДОВАНИЯ

EDUCATION AND INNOVATIVE RESEARCH



№1/2025
YANVAR

Muassis:

Buxoro davlat universiteti
Fan va ta'lim MChJ

Bosh muharrir:

Ma'murov Bahodir Baxshulloyevich, Buxoro davlat pedagogika instituti rektori

Jamoatchilik kengashi raisi:

Xamidov Obidjon Xafizovich, Buxoro davlat universiteti rektori

Mas'ul kotib: Akramova Gulbahor Renatovna

Texnik muxarrir: Davronov Ismoil Ergashevich

Tahririyat manzili:

Buxoro shahar,
Q.Murtazoyev ko'chasi, 16-uy

E-mail:

eirjurnal2020@gmail.com

Jurnalning elektron sayti:
www.interscience.uz

Jurnal OAK Rayosatining 2021 yil 30 sentyabrda 306/6-son Qarori bilan

PEDAGOGIKA, PSIXOLOGIYA, FILOLOGIYA, TARIX

FANLARI bo'yicha falsafa doktori (PhD) va fan doktori (DSc) ilmiy darajasiga talabgorlarning dissertatsiya ishlari yuzasidan asosiy ilmiy natijalarini chop etish tavsiya etilgan ilmiy nashrlar ruyxatiga kiritilgan

Bosishga ruxsat etildi:

10.02.2025 y.

Qog'oz bichimi 60x84 1/8, b/t.12,5.

Buyurtma raqami №0324 «FAN VA TA'LIM» nashriyotida chop etildi. Buxoro shahar <https://interscience.uz/> saytida joylashtirildi

Jurnal 28.07.2021 yilda 9305

raqami bilan O'zbekiston Ommaviy axborot vositalari davlat ro'yxatidan o'tgan

Jurnal 2020 yilda tashkil topdi va 2 oyda 1 marta chop etildi. 2021 yil noyabr oyidan boshlab har oyda 1 marta o'zbek, rus va ingliz tillarida chop etiladi

«Ta'lim va innovatsion tadqiqotlar» xalqaro ilmiy-metodik jurnalidan ko'chirib bosish tahririyatning roziligi bilan amalga oshiriladi

Maqolada keltirilgan faktlarning to'g'riligi uchun muallif mas'uldir

07.00.00 – TARIX FANLARI

Ahmadova Z. Sh. Globallashuv jarayonida ta'lim sifatini oshirish va inson kapitalini bozor talablariga moslashtirishdagi islohotlar	8
Elboyeva Sh. Reforms implemented in Uzbekistan during the years of independence to increase the socio-political activity of women: analysis and results (1991-2024)	13
Hasanova N.N. Mustaqillik yillarida yangi ekin navlari tarixi	18
Imomov U. I. G'arbiy Yevropa tarixshunosligida Samarqand tarixining o'rganilishi	23
Matyakubov X.X. Markaziy Osiyo sivilizatsiyalari va orolbo'yi madaniyatlarining o'zaro aloqalari tarixi	29
Qayumova N. M. Dunyo sonetchiligining taraqqiyot omillari	34
Qurbonov A. O'zbekistonda iqtisodiy siyosat, sanoat sohasida amalga oshirilgan tadbirlar va uning oqibatlari (XX asrning 30-50 yillar)	43
Usarov S. R. O'zbekistonning janubi-sharqiy osiyo mintaqasi davlatlari bilan savdo aloqalari tarixida transport koridorlarining o'rni	49

10.00.00 – FILOLOGIYA FANLARI

Achilova R. A. Allyuziya va reminitsensiya hodisalari	54
Alimjanova Sh. A. Frame semantic analysis of polysemantic phraseological units with the component "Hand" in the uzbek language	57
Atavullayev J.M. Anton Pavlovich Chexov hikoyalarida psixologik realizmninf badiiy ifodasi.	63
Арипова Х.А. «Тема двойщейся реальности» в романе Д. И. Рубиной «Синдром петрушки»	66
Алмишева Ё. М. Имена и качества Аллаха, приведенные в «Бабуристе» и их перевод на русский язык	72
Бабаева Ш. Б., Орипова Н. Н. Синтез реалистических и постмодернистских художественных приёмов в современной литературе (на материале произведений В. Пелевина и Улутбека Хамдамова)	77
Baxronova M. A. Shekspir asarlarida kasalliklar talqini	80
Bazarbaeva A. M. A Study of the cognitive aspect of meaning formation via english phraseological units	85
Bo'riyeva M.O. Usmon Nosir va Sergey Yesenin ijodida she'riyat mavzusi va tematikasi.	90
Djurayeva L. M., Achilova R. A. Sun'iy intellekt va innovatsion pedagogik texnologiyalarni tahlil qilish	93
Hikmatova N.A. Badiiy asarlarda bog' tasviri	99
Irkayeva N. H.O'zbekiston televideniyesining ixtisoslashgan kanallarida xorijiy tildagi dasturlar	104
Jo'rayeva M.N. Tarz (holat) maydoni uzvlari	116
Коракузиев М.Б. Актуализация исламских юридических терминов в «Бабуристе» и их перевод на русский язык	120
Mamasoliyev I. U. Rus va o'zbek tillari leksikasida o'zlashmalarning stilistik moslashuvi (oav materiallari asosida)	124
Mavlonova S.A. Doris Lessingning adabiy jarayondagi o'rni.	131
Mukhitdinova Kh.S. Important stages of development in the history of uzbek anthroponyms.	135
O'rinova M.N. Bolalar folklorining o'rganilish bosqichlari	143
Olimova Sh. S., Davlatova M. H. Linguodidactic principles of using modal units in speech	148
Ro'ziyeva D. N. O'zbek adabiyotida ota orazi (O'tkir Hoshimovning "Ikki eshik orasi" asarida zabardast otalar timsoli)	151
Rustamov A. S. Buxoro ergonimlarida metaforik ko'chimlar	157

DUNYO SONETCHILIGINING TARAQQIYOT OMILLARI

*Qayumova Nigora Muxtor kizi,
Fakultetlararo chet tillar kafedrası katta o'qituvchisi Buxoro davlat universiteti*

Annotatsiya: Ushbu maqola dunyo sonetchiligining tarixiy rivojlanishiga ta'sir ko'rsatuvchi asosiy omillarni tahlil etishga bag'ishlangan. Maqolada sonet janrining o'ziga xos xususiyatlari, uning shakl va mazmunidagi o'zgarishlar, shuningdek, badiiy adabiyotdagi rollari muhokama qilinadi. Sonet janrining rivojlanishiga ta'sir qilgan omillar sifatida, adabiy-ijtimoiy sharoitlar, madaniy o'zgarishlar, shu jumladan falsafiy, diniy va siyosiy omillar ko'rib chiqiladi. Bunday omillar sonetning shakl va mazmuniga ta'sir qilib, uning san'ati va mavzularini o'zgartirishga sabab bo'lgan. Maqolada shuningdek, mashhur sonetchilar va ularning ijodi tahlil qilinib, sonetning jahon adabiyotidagi o'rni va uning zamonaviy holati haqida fikr yuritiladi.

Kalit so'zlar: adabiyot, she'riyat, janr, shoir, sonet, sonetchilik, katren, terset, shakl, mavzu

ФАКТОРЫ РАЗВИТИЯ МИРОВОГО СОНЕТНОГО ИСКУССТВА

*Каюмова Нигора Мухтар кизи,
старший преподаватель межфакультетской кафедры иностранных языков
Бухарский государственный университет*

Аннотация: Эта статья посвящена анализу основных факторов, оказавших влияние на историческое развитие мировой сонетной поэзии. В статье рассматриваются особенности жанра сонета, изменения в его форме и содержании, а также его роль в художественной литературе. К факторам, повлиявшим на развитие жанра сонета, относятся литературно-общественные условия, культурные изменения, а также философские, религиозные и политические факторы. Эти элементы оказали влияние на форму и содержание сонета, что привело к изменениям в его искусстве и темах. В статье также анализируются известные сонетисты и их творчество, рассматривается место сонета в мировой литературе и его современное состояние.

Ключевые слова: литература, поэзия, жанр, поэт, сонет, сонетистика, катрен, терсет, форма, тема.

FACTORS IN THE DEVELOPMENT OF WORLD SONNET WRITING

*Kayumova Nigora Muxtor kizi,
Senior Teacher of the Interfaculty Department of Foreign Languages Bukhara State
University*

Abstract: This article is dedicated to analyzing the main factors that influenced the historical development of world sonnet poetry. The article discusses the unique characteristics of the sonnet genre, its changes in form and content, as well as its role in artistic literature. Factors that influenced the development of the sonnet genre, such as literary-social conditions, cultural changes, including philosophical, religious, and political factors, are examined. These elements impacted the form and content of the sonnet, leading to changes in its art and themes. The article also analyzes famous sonnet poets and their works, discussing the place of the sonnet in world literature and its contemporary state.

Keywords: literature, poetry, genre, poet, sonnet, sonnet writing, quatrain, tercet, form, theme.

Kirish. Sonet janri o'n to'rt misradan iborat, o'ziga xos band tizimiga, qofiyalanish tartibiga ega janr bo'lib, G'arb lirikasiga mansub. G'arb lirikasining janri sifatida paydo bo'lgan.

taraqqiy topgan, dunyo xalqlarining aksariyati, jumladan, o'zbek she'riyatida mavjud bo'lgan o'n to'rt misrali she'r sonetdir. "Sonet" italyancha "sonetto", provanscha "sonet", ya'ni "qo'shiq" so'zidan olingan. Sonet janrining uch ko'rinishi bo'lib, dunyo she'riyati bag'rida paydo bo'lgan. Klassik, romantik, zamonaviy sonet turi G'arb she'riyatida keng tarqaldi. Bu janr Sharq lirikasi tomonidan o'zlashtirildi. XX asrga kelib esa o'zbek she'riyatida ham sonet janri namunalari yaratila boshlandi.

Sonet janri Nikola Bualoning "She'riy san'at" asarida ham tavsiflangan:

Shart qo'ymish, avvalo, qo'sh katren deya,

Ularni ulasin ikki qofiya.

Ikki terset bilan tugasin Sonet,

Xulosa fikrni tashisin terset [7;256].

Nikola Bualoning fikricha, Apollon sonetning vaznini, hijosini belgilab bergan, unda shoir so'zni takror qo'llamasligi lozim, jo'n gapni she'r qilib, sonet deyishi kerak emas. She'r san'ati haqidagi bu ilmiy asarda qator janrlar bilan bir qatorda sonetga ham ta'rif berilar ekan, "chiroyli sonet dostonidan a'lo" deyiladi. She'riy tarzda yaratilgan bu asarni Jamol Kamol mohirlik bilan tarjima qilgan. Bu asar orqali Gombo, Menar, Malvil, Pelletye kabi sonetnavislar haqida xabar topish mumkin. Ayni damda olim ularning sonetlariga yuksak baho bermaydi, "beta'sir sonetlar" den hisoblaydi. Hatto Pelletye sonetlari yozilgan qog'ozlarni go'sht o'rashga loyiq deb biladi. Bu keskin tanqid edi, albatta. Bu asar yordamida sonetning ikki katren, ikki tersetdan tashkil topganini, ulardagi bog'liqlik shakliy jihatdan qofiya orqali yuzaga kelishini anglash mumkin.

Metodlar. Nafaqat o'zbek va ingliz, balki butun dunyo she'riyatida keng tarqalgan sonet janrining yuzaga kelish jarayoni haqida aniq bir ma'lumot mavjud emas. Sonetshunos tadqiqotchilar sonetning vatani haqida bir nechta farazni ilgari surishadi. Ba'zi tadqiqotchilar sonet janri ilk bor XI-XIII asrlarda ritsarlik lirikasi tarkibida Fransiya janubidagi qishloqlardan biri Provansda paydo bo'lgan degan taxminni keltirishsa, boshqa birlari Italiyani sonet yaratilgan joy ekanligi haqida fikr bildirishgan. Boshqa bir guruh tadqiqotchi olimlar fikriga binoan sonet ilk bor qadimgi Gretsiyada yaratilgan[20]. Sonetning qadimgi Gretsiyada yaratilganligi haqidagi fikrni ilgari surgan olimlar, she'riyatning qadimgi yunonlarga tegishli an'analaridan, masalan, epigrammalar, odealar yoki lirikaning boshqa shakllari bilan bog'lashadi. Bu yondashuvlar orqali, ular sonetning qadimiy ildizlari haqida gapiradilar, ammo bu shaklning to'liq ifodasi va tuzilmasi faqat Renessans davrida shakllanib, Petrarka tomonidan rivojlantirilgan. Aksariyat tadqiqotchilarning xulosasiga ko'ra, sonetning vatani Italiya, yanada aniqroq qilib aytadigan bo'lsak, Sitsiliya hisoblanadi. Manbalarda qayd etilishicha, Jakopo da Lentini birinchi sonetnavis sifatida tilga olinadi. U Sitsiliya qiroli Fridrix IIning saroyida notarius vazifasini o'tagan va "Sitsiliya maktabi" shoiri bo'lgan. Dastlabki italyan sonetlari o'zining vazni, tuzilishi, qofiyalarning kesishuvchi sxemasi bilan xalq qo'shig'iga yaqin edi. Shoirilar Gvido Gvinitelli, Gvido Kavalkanti, Chino da Pistoyya va Toskana demokratik shoirlar maktabining vakili Chekko Andjolyeri keyinchalik sonet shaklini "dolce stil nuovo" ("yangi xushta'b uslub") shakliga o'zgartirishdi. Ular ijodidan so'ng trubadurlar she'riyatining ma'shuqaga tahsin o'quvchi sonetlari vujudga keldi. Shoirlarning "dolce stil nuovo" sonetlarida ayol ilohiylashtiriladi, muhabbatdagi tabaqalash to'siqlari buziladi, insonning ma'naviy dunyosi tadqiq qilinadi, poetik til mukammallashadi.

Petrarka Uyg'onish davrining birinchi atoqli shoirlaridan va klassik filologiyaning asoschisi sifatida tan olingan. Petrarka huquqshunoslik yo'nalishi bo'yicha ta'lim olgan bo'lsa-da, diniy rutbani qabul qilgan va ruhoniylilik kasbini ham tanlagan. U avval boshda davlat xizmatchisi lavozimida ishlaydi, ya'ni kardinal xizmatida bo'lib, butun Yevropaga sayohat qiladi. Shoir o'zining adabiy faoliyatini Fransiya janubida Volkyuz nomli shaharchada boshlagan. Petrarka, ko'pincha, qadimgi klassik qo'lyozmalar muallifi Virgiliy va Sitseron asarlarini o'qib, tahli qilishni xush ko'rardi. Petrarkaning ko'plab she'rlari, shu jumladan, sonetlari "Kansonyere"

to‘plamiga kiritilgan, bu so‘zma-so‘z o‘g‘irganda “Qo‘shiq-lar kitobi” degan ma‘noni anglatadi. 1341-yilda u adabiyot, ya‘ni she‘riyatga qo‘shgan buyuk xizmatlari uchun dafna gulchambari bilan taqdirlangan. Petrarkaning fikricha, bu dunyoda asosiy narsa sevishtir va sevilishdir, lekin u sevgining nafaqat ayol kishiga nisbatan bo‘lishi kerakligi, balki do‘stlarga, qarindoshlarga, tabiatga ham nisbatan bo‘lishi mumkinligini talqin etadi. Petrarka bu qarashlarini asarlarida aks ettirish orqali kitobxonlari bilan baham ko‘rgan. Uning “Kansonyere” nomli kitobi ritsarning qizi Laura de Novesga bag‘ishlangan. To‘plamga Petrarkaning umrining oxirigacha yozgan she‘rlari kiritilgan. To‘plam ikkita nashrga ega edi. To‘plamdagi jami 366 ta she‘r 317 sonet, 29 kansona, 9 sekstina (to‘qqizlik), 7 ballada va 4 madrigaldan tashkil topgan. Undagi sonetlarning birinchi qismi “Lauraning hayoti to‘g‘risida” nomli bo‘limga, qolgan qismlari “Lauraning o‘limi haqida” deb nomlanuvchi ikkinchi bo‘limga kiritilgan. Petrarkaning sonetlarida his-tuyg‘ularning vaqtinchalik dinamikasini kuzatish mumkin.

Bilaman, hammaga yot erur qalbim
Va sizga tikarman g‘amgin nigohim.
Ko‘zimdan yosh bo‘lib to‘kilar ohim –
Mahzun shamol xazon uchirgan kabi.

Yuzingizda kulgu barq urar guldek
Unutgum hayotning ayshu korini,
Unutgum do‘zaxiy dunyo zorini –
Husningizga to‘ymay termilsam quldek.

Ketsangiz yuragim zulumot quchar,
Qotilim – kulgungiz sog‘inar ko‘zim,
Ketsangiz, chorasiz soviydi qonim.

Ishq kaliti ochar sovugan ko‘ksim,
Ruh qushim qafasni tark etib uchar –
Uchar faqat sizni ko‘rmoq-chun, jonim [21].
Xurshid Davron tarjimai

“Kansonere”da muallif go‘zal va shafqatsiz Laurani ulug‘laydi. Petrarka sevgilisini hayotiy tasvirlar bilan o‘ziga xos tarzda aks ettiradi. Shu sababli ham u kitobxonlar uchun latif sonet ijodkori, kelgusi sonetnavislar uchun esa yangi davr yaratuvchisi sifatida manzur bo‘ldi. Uning sonetlarida lirik qahramon barcha mashaqqatlarni boshidan kechiradi, muqaddas qasamini buzishga majbur bo‘ladi. Muallifning sonetlaridan birida oshiq sevgilisi bilan o‘tkazgan har bir daqiqasidan xursand bo‘ladi. Petrarkaning bu asari oshiqning mashuqaga nisbatan she‘riy e‘tirofi bo‘lib, unda o‘zining ichki erkinligi va ma‘naviy mustaqilligini ifodalaydi. Oshiq sevgilisidan tashvishlanadi, lekin o‘zining sevgisidan, Laurani sevganidan afsuslanmaydi. Bu sonetlari orqali shoir insoniyat sevgisiz haqiqatda mavjud bo‘lmasligi haqidagi fikrlarni ilgari suradi.

Jovanni Bokachecho Italiya Uyg‘onish davrining buyuk yozuvchilaridan biri sifatida e‘tirof etiladi. U ham huquqshunoslik yo‘nalishi bo‘yicha ta‘lim olib, davlat siyosiy hayotida faol ishtirok etgan bo‘lsa-da, adabiyot sohasida ham yuksak iste‘dodini namoyon eta oldi. Uning “Ameto” (1341), “Fyezolan parilari” (1345) pastorallari, “Fyametta” (1343) qissasi hamda sonetlari bor. Adib o‘zining “Dekameron” nomli asari bilan dunyoga nom chiqargan. Jovanni oilasida noqonuniy farzand bo‘lganligi sababli omma unga nisbatan nafrat bilan qaradi. Jovanni Petrarkadan to‘qqiz yosh kichik, ya‘ni u bilan zamondosh edi. Petrarkaning o‘limi Bokachechoga shunchalik ta‘sir qildiki, u uning sharafiga sonet yozdi. Jovanni Bokachecho sonetlarini Petrarka, Dante Aligyeri kabi buyuk daholarga, ayni damda, ayollarga bag‘ishlab

yozgan. U ham o'z sonetlarini sevgilisi Fiamettaga atab yaratdi. Lekin Bokachchoning sevgisi Petrarka kabi ulug'vor emas, balki oddiyroq edi. U o'zining sonetlarida mashuqasining yuzi, sochlari, yonoqlari, lablari, xullaski, go'zalligini kuylaydi, go'zallikka bo'lgan qiziqishi haqida yozadi.

Italiyada sonet shakli, asosan, Petrarka tomonidan mukammallashtirilgan, ya'ni Petrarka sonetlari o'ziga xos tuzilish va qofiya tartibiga ega. Shu sababli italyan soneti Petrarka soneti nomi bilan ham yuritiladi. Petrarka sonetlari Laura ismli ayolga bag'ishlangan. Petrarka soneti, odatda, a-b-a-b; a-b-a-b; e-f-g; e-f-g tarzida qofiyalanadi. Oktava ikkita alohida to'rtlik (to'rt misrali band), sesteta esa ikkita tersetga (uch misra) bo'linadi. An'anaga ko'ra, Petrarka sonetidagi sestet oktavadan farqli ko'rinish yoki g'oyani beradi, shuning uchun ular alohida qofiya tartibiga ega.

Qo'shiqqa jo etdim yoshlik zavq-shavqin,
Og'riqli oh-vohlar shovqini giryon,
Ilk xato xun olgan shum damdan buyon
His etmay yasharman o'z umrim haqqin.

Behuda orzu va benaf jafo-kin
Muztar ovozimni uzar nogahon,
Qalbim uzr-ma'zur bobida hayron,
Sevishganlar, faqat xayrixohlik chin.

Salim Ashurning ruschadan bilvosita tarjimasi hisoblangan bu sonetda qofiya tartibi dastlabki ikki bandda shunday: a-b-b-a; a-b-b-a

Keyingi uch misrali ikki bandda esa d-e-f; d-e-f tartibidagi qofiya qo'llangan, ya'ni birinchi uchlikdagi har bir misra keyingi uch misrali banddagi shunday misraga qofiyadosh bo'lib kelgan.

Ustimdan kuladi har kimsa, nahot,
Muhimmi, hakamlar juda ham sipo:
O'zimni kulgili sezyapman hozir.

Zimni puch manfaat chanqatar, hayhot,
So'ng anglab, o'zimni aybladim hatto,
Dunyoviy shodliklar – muxtasar tushdir.

Italyan sonetlarida katrenlarning birinchi misrasi uchinchisi bilan qofiyadosh bo'lsa, ikkinchisi to'rtinchi misra bilan qofiyalanadi: a-b-a-b; a-b-a-b yoki ikkinchi variant: a-bb-a; a-bb-a. Tersetlarda ham misralar ikki xil ko'rinishda qofiyalanadi: I variant: e-f-e; f-e-f, II variant: e-f-e; e-f-e. Petrarka ko'proq ikkinchi variantdan foydalangan.

Petrarkadan so'ng sonet janriga Portugaliya, Ispaniya, Fransiya, Angliya, Germaniya hamda Rossiyada ham kuchli qiziqish boshlandi. Shu davrdan boshlab bu janr dunyo bo'yicha kenga tarqala boshladi.

Italiyada XV asrda ham sonet yozish davom etdi. S.Prodensanining 186 ta sonetdan iborat "Il Saporetto" nomli to'plami 1410-yil atrofida yaratilgan italyancha Arsnova musiqasi uchun muhim manba bo'lgan. Italiyada dastlabki sonetlar italyan tilida emas, qadimgi yahudiylar tilida paydo bo'lgandi. Masalan, Rimlik Immanuel o'z she'riyatida yahudiylar tilidan foydalangandi.

Sonet janri Italiyadan Fransiyaga qadam qo'ydi. Fransiyada sonet, ayniqsa, XVI asrda keng quloch yoydi. Sonet Ronsar va Barro ijodida she'riyatning klassik shakli sifatida qaror topdi. Ronsar va Varro yaratgan ajoyib sonetlar fransuz she'riyatining rivojiga sezilarli ta'sir ko'rsatdi.

Per de Ronsard Fransiya Uyg'onish davri adabiyoti vakilidir. U o'ziga to'q oilada tug'ilganligi sababli yaxshi ta'lim olish uchun barcha imkoniyatlarga ega edi. Uning she'riyati til va tasvirning ajoyibligi va o'lehovlarning nafis xilma-xilligi bilan ajralib turadi. U klassik

she'riyatni tanqid qilgan va xalq tilini ilm-fanga tatbiq etishni maqsad qilgan. Huquqshunos bo'lsa-da, iste'dodi tufayli u fransuz she'riyatiga yangi o'lchov va qofiya kirita oldi, buning uchun Per de Ronsard munosib ravishda "shoirilar qiroli" nomiga sazovor bo'ldi. Yillar o'tib eshitish qobiliyatini yo'qotgan bo'lsa ham, u o'z ustida ishlashdan voz kechmadi. U Goratsiy va Virgilni antik davrning eng yirik shoirilari deb hisoblagan. U sonet janrini fransuz adabiyotiga olib kirgan shoir sifatida tanilmagan bo'lsa ham, uning fransuz tilida yaratgan sonetlari fransuz adabiyotining tan olingan durdonalaridan biri bo'lgan. U ham boshqa sonetnavislar kabi o'z sonetlarida ayollarning go'zalligini, ularga bo'lgan muhabbatini tasvirlaydi. Shoir o'zining sonetlarini Kassandra, Mari va Yelena ismli ayollarga bag'ishlab yozgan. Sonetlardan birida u qora sochli va jigarrang ko'zli qizga bo'lgan sevgisini tan oladi.

Fransuz adabiyotida bu janrda Pierre de Ronsarddan tashqari Klement Marot, Charles Baudelaire, Stephane Mallarme, Paul Verlaine singari ko'plab shoirilar ijod qilishgan.

Charles Baudelaire fransuz mumtoz she'riyatining rivojlanishiga ta'sir ko'rsatgan shoir, tanqidchi va tarjimonidir. U sonet janrida ham o'z yuksak mahoratini ko'rsata olgan: "O'tkinchi ayolga" soneti a-b-b-a; d-e-e-d; f-g-f-g; h-h tartibida qofiyalangan. Oxirgi satriga diqqat qiling:

Car j'ignore où tu fuis, tu ne sais où je vais,

O toi que j'eusse aimée, ô toi qui le savais! [17]

O'zbek tiliga o'girilganda tarjimon och qofiya yordamida bo'lsa ham qofiya tartibini saqlashga intilgan, ammo asliyatdan farqli tartibni ko'rish mumkin: a-b-b-a; d-e-e-d; f-g-f-g; f-g.

Tuyg'ular mavjlandi, vujud jim qoldi.

Dudog'i shivirlar g'amgin ifoda,

Xayollar charx urdi masrur, poyida.

Ko'ngil tusar edi zaharli bolni.

Charles Baudelairening mazkur soneti muhabbat mavzusida yozilgan. Lirik qahramon muhabbati ifodalangan sonetda shoir "Hayotbaxsh qorachiq" ifodasi orqali sevikli ayol timsoliga xoslikni beradi. "Zulmat pardasi"ning o'chishi oshiq qalbdagi og'riqlarni bildiradi. Oshiq "sevgi sharpasi"ga duch kelgan yo'ldan qaytmoqchi emas. Demak, sonetda lirik qahramonning boshdan-oxir sevgi iztirobi, oshiq kechinmalari aks ettirilgan. Shakl jihatdan 14 qatordan tashkil topgan. Dastlabki 8 misra katren, so'nggi 6 misra terset bo'lib, to'rtlik va ikkilik bendlardan tashkil topgan.

Portugaliya adabiyoti tarixidagi eng nurli sahifalar Lui de Kamoens nomi bilan tanilgan buyuk shoir manzumalari sabab ziynatlanganligi shubhasizdir. Zero, Kamonens o'zining mashhur vatandoshi Vasko da Gamaning Hindiston sari qilgan ummoniy sayohatlarini bayon etuvchi birgina "Luziad" dostoni bilanoq (1572-yili chop etilgan) jahon tarixidagi Yangi davr nomini olgan XVI asr G'arb adabiyotidagi daho san'atkorlar Dante, Tasso va Miltonlar safidan munosib o'rin topgan edi: [3; 17]

O, qanchalar bokira, ma'sum,

Toza edi o'shal Rimli qiz.

Isnod dog'in ko'tarmay mash'um,

Qurbon qildi jonini esiz...

Garchi unda yo'q edi g'ubor,

Garchi riyo unga yot matlab.

Ulus ichra qildi sharmisor,

Qay bir nojins sha'nini bulg'ab.

Lui de Kamoensning bu soneti 4+4 shaklli katren, 3+3 shaklli tersetdan iborat bo'lib, tuhmat sabab sha'ni toptalgan bokira qizning o'z joniga qasd qilishi ifoda etilgan. Tarjimon birinchi katrenda abab; ikkinchi katrenda dede tarzidagi qofiya tartibini qo'llagan bo'lsa, tersetlarning

qofiya tartibini yanada betakror holatda qo'llagan.

Chirkin hayot qutqulariga f
Dilbar vujud ko'tardi isyon, g
Naq yurakka botirdi xanjar... h

O'zining pok tuyg'ulariga f
Sodiq, mushfiq, go'zal navjuvon, g
Endi dilda or bo'lib yashar...[3;23] h

Tarjimon birinchi tersetning har bir misrasi bilan ikkinchi tersetning har bir misrasini o'zaro qofiyadosh qilib olgan.

Jahon she'riyatida XIII asrda paydo bo'lgan sonet janri Italiyada ikki asrdan ko'proq vaqt davomida keng qo'llab kelindi. Angliyaga, ya'ni ingliz she'riyatiga esa XVI asrning 30-yillarida kirib keldi. Ser Tomas Uayt, Filip Sidney, Edmund Spenser kabi shoirlar o'z ijodlarida sonetning ilk namunalarini yaratib, bu janrni ingliz she'riyatida takomillashtirishga intildilar. Ingliz sonetchiligining rivojlanishi Yelizavetta davri adabiyotiga borib taqaladi. Yelizavetta davri adabiyoti sonetnavislari Petrarka sonetlarining tuzilishi va mavzusini davom ettirdilar. Petrarka davridagi sonet klassik sonet sifatida o'n to'rt misrali bo'lib, u ikki qismga aktava (sakkizlik) va sesteta (oltilik)ga bo'lingan. Aktava ikkita to'rtlikdan, sesteta esa ikkita uchlikdan tashkil topgan. Aktavada shoirlar sonetning mavzuni tanishtirishgan bo'lsa, sestetda uning ezgulikni targ'ib etuvchi mazmundagi yakunini ifoda etishgan. Yelizavetta davri adabiyoti sonetnavislari ham Petrarka singari 14 qatorli, a-b-b-a; a-b-b-a qofiyali aktava, va c-d-e;c-d-e yoki c-d-c;d-c-d qofiyali sesteta shaklida sonet yaratganlar.

Petrarka sonetlarining asosiy mavzusi muhabbat ifodasidan iborat edi. Yelizavetta davri shoirlari ham dastlab shu mavzuga murojaat qilganlar. Bu she'rlarda oshiq odobli, g'amnok, umidsiz qiyofada, sevikli yor esa mag'rur, oshiqqa qayrilib boqmaydigan dildor sifatida gavdalantirilgan. Bu ma'lum ma'noda o'zbek mumtoz g'azalchiliga monand hol bo'lib ko'rinadi.

Ser Tomas Uayt Fransiya, Italiya, Ispaniya sudlarida diplomatik missiyalarda ishtirok etgan. U italyan, fransuz va ispan sonetlari bilan tanishib, italyan sonetlaridan ta'sirlangan va sonet yozishda italyancha shaklni o'ziga namuna qilib olgan.

Ser Tomas Uaytning shogirdi Surrey o'zining qisqa umri davomida oz sonli sonet yaratgan. Surrey kam sonli sonetlar yaratganiga qaramay, o'zining zamondosh va undan keyingi davr sonetnavislariga Uaytdan ko'ra ko'proq ta'sir qila olgan. Surreydan keyin ko'plab shoirlar sonet yozishda davom etdi, albatta, ammo Edmund Spenser sonetlar yozishga o'tirmaguncha, sonetchilik mavzu ko'lami kengaymadi.

Edmund Spenser Londonning Sharqiy Smitbiold shahrida tug'ilgan. 1576-yilda Kembrijda magistr darajasini olgandan so'ng Spenser Rochester episkopi Jon Yangning kotibi bo'lgan va shu tariqa ser Filipp Sidney bilan tanishgan. Spenserning sonetlar ketma-ketligi Amoretti deb nomlanadi. Unda sakson to'qqizta sonet mavjud bo'lib, ulardan faqat bittasi shekspircha shaklda, qolganlari esa u ixtiro qilgan shaklda yozilgan. Uning sonetlari uchun o'zining qofiya tartibi bo'lib, u qo'shiq va alohida misralarni aralashtirib, shuningdek, uch to'rtlikni bir-biriga juda nozik tarzda bog'lay olgan. Bu sonetlarda ham muhabbat yetakchi mavzu sanalgan.

Spenserga Surreydan tashqari Ser Filipp Sidney ta'sir ko'rsatgan. Yelizavetta davri adabiyotining eng yaxshi sonetchilaridan biri bo'lgan Sidney o'zining bir yuz sakkiz sonetdan iborat "Astrofel va Stella" sonetlari ketma-ketligi uchun mashhur bo'lgan. Ushbu sonet ketma-ketligidan tashqari u yana bir nechta sonetlar yozgan, ammo ular "Astrofel va Stella" kabi mashhurlikka erisha olmagan.

Sidney ser Genri Sidning to'ng'ich o'g'li, uch marta Irlandiyaning lord deputati bo'lgan. U Oksforddagi Krist cherkoviga boradi, lekin hech qanday diplom olmasdan institutni tark etadi va Yevropa bo'ylab sayohat qiladi hamda tez orada qirolicha Yelizaveta saroyining yorqin

a'zosiga aylanadi. O'zining go'zal xulq-atvori, shirin suhbat, yorqin zehni va jasoratligi bilan u yosh avlodning go'zal ideali sifatida e'tirof topadi. Sonetlardan tashqari u malika sharafiga "Maryam xonim" asarini yozadi va uni 1578-yilda nashr ettiradi. Uning sonet yaratishdagi mahorati shu qadar zo'r ediki, sonetchilikda Shekspirdan keyingi o'rinni egallaydi deb hisoblashadi. Sidney sonetnavislikda, odatda, italiyaliklarga ergashgan. Sonetnavislik sohasidagi sezilarli o'zgarishlar, asosan, Shekspir tomonidan amalga oshirish orqali sodir bo'ldi. Uning uslubi ham, mavzusi ham avvalgi sonet yozuvchi shoirlarning ijodidan farq qilar edi. Shoirning 14 misradan iborat soneti esa to'rt qismga bo'lingan: uchta to'rtlik va yakunlovchi qism (a-b-a-b; c-d-c-d; e-f-e-f tarzida qofiyalangan uchta to'rtlik va g-g tarzida qofiyalangan yakuniy bandi). Shekspir sonetining mavzulari ham xilma-xildir. Bu sonetlarda ishq, go'zallik, hasad, bevafoqlik, vaqtning o'tkinchiligi, o'lim kabi mavzular yoritilgan. Ingliz sonetchiligi ham bu janr taraqqiyotida alohida o'rin tutadi.

Sonet asta-sekin Germaniyaga ham o'tdi. XVII asrda M. Opits, XIX asrda I. Hyote, H. Heyne sonetda o'z qalamini sinab ko'rdi.

Rus adabiyotida sonet janri XVIII asrda paydo bo'la boshladi. XVIII asrda rus adabiyotida klassitsizm va fransuz she'riyati ko'proq ta'sir ko'rsatardi va hukmronlik qilar edi. Shekspir tomonidan yaratilgan asarlar, sonetlar rus millatiga yaxshi tanish bo'lsa-da, Shekspirning sonetlari o'sha davr rus adabiyotiga o'z ta'sirini o'tkaza olmagan. Rus she'riyatiga ingliz she'riyatidan ko'ra ko'proq fransuz she'riyati ta'sir ko'rsata olgan. Tadqiqotlarda qays etilishicha, Rossiyada sonet adabiy janr sifatida mashhurligining ikki cho'qqisini boshidan kechirdi: oltin va kumush asrlar davri sifatida ajratiladi.

Rossiyada sonetning ilk namunasini yaratgan shoir V. Trediakovskiydir. Rus tilidagi birinchi sonet 1735-yilda yozilgan bo'lib, u Trediakovskiy qalamiga mansub va bu sonet fransuz shoiri Jak de Barroning sonetining tarjimasi edi. XVIII asrda rus adabiyotiga klassitsizm va fransuz she'riyati ko'proq ta'sir ko'rsatgani sabab Shekspir sonetlari rus ijodkorlariga yaxshi tanish bo'lsa-da, o'z ta'sirini o'tkaza olmagan. Tadqiqotlarda qayd etilishicha, Rossiyada sonet janri oltin va kumush davrni boshidan kechirgan. Keyinchalik A. Sumarokov, G. Derjavin, A. Pushkin, M. Lermontov, A. Fet va boshqa shoirlar ham latif sonetlar yaratishdi. I.I. Dmitriyev, V.A. Jukovskiy, A.A. Delvig, Baratinskiy, Rjevskiy, Aleksandr Pushkinlar "Oltin" davr sonetnavislari sifatida mashhurlikka erishgan. Dmitriyev tomonidan "Sonet" (1796), V.A. Jukovskiy tomonidan "Yumshoq o'pish uchun siz sonet talab qilasiz ..." (1806), A.A. Delvig "N.M.ga. Yazikov" (1822) nomli sonetlar yaratilgan. Baratinskiy, Rjevskiy, Aleksandr Pushkinlar ham bu janrda samarali ijod qilishgan. Pushkin bu janrda "Madonna", "Shoirlar", "Sonet haqida sonet" nomli uchtagina sonet yaratgan bo'lsa-da, bu sonetlari o'quvchilarga juda manzur keldi.

I.I. Dmitriyev, V.A. Jukovskiy, A.A. Delvig, Aleksandr Pushkin kabi shoirlar oltin davr sonetnavislari sifatida mashhurlikka erishgan. Dmitriyev "Sonet" (1796), V.A. Jukovskiy "Nafis o'pich uchun siz sonet talab qilasiz ..." (1806), A.A. Delvig "N.M.ga. Yazikov" (1822) nomli sonetlar yaratishgan. A.S. Pushkin bu janrda kamroq bo'lsa-da ijod qilib, "Madonna", "Shoirlar", "Sonet haqida sonet" nomli sonetlarini bitgan. Bu sonetlar uchtagina bo'lsa ham ko'p muxlislar topdi, she'rxonlarga manzur keldi. Pushkinning "Sonet" she'ri alohida e'tiborga loyiqdir. a-b-a-b a-b-b-a d-d-e-f-f-e

Они в самом тебе. Ты сам свой высший суд; d
Всех строже оценить умеешь ты свой труд. d
Ты им доволен ли, взыскательный художник? e
Доволен? Так пускай толпа его бранит f
И плюет на алтарь, где твой огонь горит, f
И в детской резвости колеблет твой треножник [18]. e

Aslyatga diqqat qilinsa, quyidagi qofiya tartibini ko'rish mumkin: a-b-a-b a-b-b-a d-d-e-f-f-e Sonet o'zbek tiligiga o'girilganda ham aynan shunday qofiya tartibi hosil qilingan: a-b-

a-b a-b-b-a d-d-e-f-f-e. Asliyat va tarjimada she'rning qofiya tartibi bir xilligi tarjimonning mahoratli ekanini anglatadi. Ammo A.S.Pushkinning sonetidagi birinchi katrenda qofiya an'anaviylikka xos tarzda bo'lsa ham qolgan qismida, ya'ni ikkinchi katren va distixlarda farqli. Bu sonet 4+4+2+4 tarzida bandlangan va o'zbek tiliga ham aynan shunday tarjima qilingan.

O'zingdadir ehson bori. Sen oliy hakam.
Qattiqqo'lsan o'z-o'zingga Sen barchadan ham,
Ko'ngling to'qmi yozganingdan, ey sohibkamol?
Ko'ngling to'qmi? Mayli, avom koyisa uni,
Bulgasa-yu, sham'ing yongan mehrob yuzini,
Minbaringni o'yin qilsa bolalar misol [8;100].

Pushkin bu she'rni shoirni ta'riflash uchungina yozmadi, balki shoirlilik qismatidagi og'riqli jihatlarga she'rxon e'tiborini tortdi.

XIX asrga kelib rus shoirlari Shekspir sonetlarini tarjima qilishni boshlashdi. XX asr boshlarida taniqli rus sonetnavislari ko'zga ko'rina boshladi. Rus sonetlari mavzusi kengaydi, shakli erkinlashdi va shu sabab dunyo sonetchiligida zamonaviy sonet turini asoslash ularga taqdir qildi. Dunyo sonetchiligi sekin-asta rivojlanib, XX asrda Sharq, jumladan, o'zbek she'riyatiga ham ko'chdi va lirikamiz janrlari safidan joy ola bordi. Zero, sonet janri takrorlanmas janrlardan biri sifatida keng tarqaldi.

Xulosa. Xulosa qilib aytganda, dunyo sonetchiligining taraqqiyoti, bir nechta asosiy omillar orqali amalga oshgan:

Tarixiy va madaniy o'zgarishlar: Sonetning taraqqiyoti va rivojlanishi asosan tarixiy davrlardagi madaniy o'zgarishlar va adabiy makon bilan bog'liq. Masalan, Renessans davrida Italiyada Petrarka va boshqalar sonetni shakl sifatida joriy etishgan va bu shaklning keng tarqalishiga sabab bo'lgan.

Ijodiy erkinlik: Sonet shakli ba'zi doiralar va qoidalar bilan cheklangan bo'lsa-da, yozuvchilar uni ijodiy ifodalashning yangi usullariga aylantirdilar. Boshqa janrlardan farqli ravishda, sonetlarda muayyan mavzularni yoritishda erkinlik ko'proq bo'ldi.

Lirika va shaxsiy ifoda: Sonetlar odatda shaxsiy his-tuyg'ular va ichki dunyoni ifodalash uchun ishlatilgan. Bu, ayniqsa, romantizm va post-romantizm davrida kuchli bo'lgan.

Tillardagi o'zgarishlar: Sonetning taraqqiyoti, tilning o'zgarishi va rivojlanishi bilan ham chambarchas bog'liq. Har bir xalqning o'ziga xos til xususiyatlari va stilistik imkoniyatlari, sonet shaklida yangi mazmun va shakl yaratishga yordam bergan.

Adabiy an'analar va ijodkorlarning ta'siri: Masalan, Shekspir, Bayron, Milton kabi buyuk shoirlar o'zlarining sonetlariga o'ziga xos uslub va mavzularni kiritganlar, bu esa shaklning taraqqiyotiga katta ta'sir ko'rsatgan. Shuningdek, ular sonetda ijtimoiy va siyosiy mavzularni ham yoritganlar.

Sonet, o'zining qisqa va mazmunli shakli bilan butun dunyoga tarqaldi. Xususan, ingliz, fransuz, italyan va ispan adabiyotlarida juda mashhur bo'lgan va shu orqali boshqa adabiyotlar va madaniyatlarga ta'sir ko'rsatgan. Sonetning taraqqiyoti, uning shakl va mazmuni, tarixiy va madaniy kontekstlarga qarab doimiy ravishda o'zgarib bordi.

Foydalanilgan adabiyotlar:

1. Alpatov M.V. Ocherki po istorii portreta. M.; L.: Iskusstvo, 1937. 59 s. (Алпатов М.В. Очерки по истории портрета. М.; Л.: Искусство, 1937. 59 с.)
2. Asallayev A. Badiiy san'atlar: [Lug'at-ma'lumotnoma] A.Asallayev, V.Rahmonov, F.Musurmonqulov. –T.: TAFAKKUR, 2015 – 24b.
3. Bizni yod etsalar. Jahon mumtoz she'riyati. – T.: G'.G'ulom nomidagi NMIU, 2018. – 256b.
4. Dilmurod Qur'onov. Adabiyot nazariyasi asoslari /darslik/. – Toshkent: "Innovatsiya-

Ziyo", 2020, 310 b.

5. Hollander J. Sonnets: From Dante to the Present. Everyman's Library, 2001. – P. 8-38.
6. Nevskaya P.V. Literaturno-jivopisnoe portretirovanie: osnovnie parametri i karakteristiki. Krasnodar: KGUKI, 2010. 142 s. (Невская П.В. Литературно-живописное портретирование: основные параметры и характеристики. Краснодар: КГУКИ, 2010. – 142 с.)
7. Nikola Bualo. She'riy san'at. Jamol Kamol tarjimasi // Kitobda: Jamol Kamol. She'r san'ati. Saylanma. Olti jildlik. IV jild. – Toshkent: Yangi asr avlodi, 2018. – B.387.
8. Pushkin A.A. Tanlangan asarlar: She'rlar, dostonlar, nasriy asarlar // So'zboshi Oripov A. – T.: Adabiyot va san'at, 1999. – B.100.
9. Quronov D. Adabiyotshunoslik lug'ati / D.Quronov, Z.Mamajonov, M.Sheraliyeva. – Toshkent: Akademnashr, 2013. – 408 b.
10. Qayumova, Nigora. «ideology and art of william shakespeare's SONNETS.» Theoretical aspects in the formation of pedagogical sciences 2.8 (2023): 94-97.
11. Qayumova, Nigora. «Шекспир Ва Рауф Парфи Сонетларида Бадий Тасвир Воситаларининг Қўлланиши.» Центр Научных Публикаций (buxdu. Uz) 30.30 (2023).
12. Qayumova, Nigora. «Formal and Contentual Coherence in the Sonnets of Rauf Parfi and Shakespeare.» ЦЕНТР НАУЧНЫХ ПУБЛИКАЦИЙ (buxdu. uz) 33.33 (2023).
13. Qayumova, Nigora. «The Genre Sonnet in the Poesis of Shakespeare.» ЦЕНТР НАУЧНЫХ ПУБЛИКАЦИЙ (buxdu. uz) 32.32 (2023).
14. Qayumova, Nigora. «The harmony of form and content in the sonnet.» Центр научных публикаций (buxdu. Uz) 40.40 (2023).
15. Qayumova, Nigora. «Dunyo Sonetchiligiga Nazar.» Центр Научных Публикаций (buxdu. uz) 41.41 (2023).
16. Qayumova, Nigora. «The Poetics of Colors in English Poetry.» Центр научных публикаций (buxdu. Uz) 40.40 (2023).
17. <https://www.poetica.fr/poeme-17/charles-baudelaire-a-une-passante/>
18. <https://www.culture.ru/poems/4936/sonet>
19. <https://www.culture.ru/poems/4441/poetu>
20. <https://daily.jstor.org/the-heretical-origins-of-the-sonnet/>
21. <https://kh-davron.uz/ijod/tarjimalar/20-iyul-franchesko-petrarka-tavallud-topgan-kun.html>